

**YOSHLARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHNING IJTIMOIIY-  
PSIXOLOGIK VAZIFALARI**

*Nazarova Saida Rustamovna*

*Farg‘ona viloyati Rishton tumani 14 -maktab kasb-hunarga yo‘naltiruvchi psixologi*

*Nizomova Firzoda Botirjon qizi*

*Farg‘ona viloyati Rishton tumani 14 -maktab amaliyotchi psixologi*

**ANNOTASIYA:**

Ushbu maqolada har bir bolalarning, qobiliyatlarini o‘z vaqtida anglash. O‘zbekiston yoshlariga e‘tibor bersak, har-bir bolaning o‘z qobiliyati, iste‘dodi, talanti bor,ota-ona va o‘qituvchilar tomonidan boladagi qiziqishni o‘z vaqtida anglash va bolalarga to‘g‘ri yo‘nalish ko‘rsatish hamda o‘zlariga mos keladigan kasbni tanlashlariga ko‘mak berish haqida yoritib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** e‘tibor, mas‘uliyat, kelajak, birdamlik, kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish.

**KIRISH**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarimizga yaratilayotgan imkoniyatlar,davlatimiz siyosatida yoshlar kamolatiga katta e‘tibor qaratish, ularning har tomonlama yetuk, zamonaviy bilimlarga ega, jamiyatda o‘z o‘rnini topgan insonlar bo‘lib yetishishi uchun jonkuyarlik ko‘rsatish muhim o‘rinni egallaydi.Prezidentimiz jon kuydirib aytgan so‘zlari ulkan mohiyatga ega, chunki har bir yosh jamiyatining faol bo‘g‘ini, bo‘lg‘usi oila boshlig‘i,farzandlarning ota onasi, kelajak poydevorini bunyodkori. Avesto davriga nazar solsak,bolalarga juda katta e‘tibor qaratilgan, yoshligidan o‘g‘il bolalarga har-xil hunarmandchilik, qilichbozlik, nayzadan o‘q otish, kulolchilik, o‘qish yozishni o‘rgatgan.Qizlarga tikuvchilikni, kashtachilik, pazandalik ,uyni ozoda tutishni o‘rgatib kelingan. Bizning hozirgi zamon yoshlari juda intiluvchan, aqlan, jismonan kuchli yoshlarimiz o‘sib kelayapti biz bularga, oziroq turtki bersak, e‘tibor qaratsak, o‘zi sevgan kasbining egasi, fikrlarini qo‘llab-quvvatlasak, bir kasbning mutaxassisi bo‘lib chiqadi. Agar aksi bo‘lsachi biz unda qanday yo‘l tutishimiz kerak.Shu o‘rinda bir qishloqning hayotiga to‘xtalib o‘tmoqchiman. Juda kamchilik bolalar o‘qir kasb-hunarni egalar ekan,100%dan 30 % o‘qir va o‘zi sevgan kasblarda ishlar ekan, 70%yoshlar Chet Elga qora ishchi sifatida ishlash uchun ketar ekan, erta bahordan ketar va kuz oylari qaytib kelar,qishloq bolalari kelganlarida biron bir qilishga ishlari yo‘q, kasbi yo‘q bekorchilikdan hamma bolalar mahalla markaziga yig‘ilishib. karta, narda va boshqa o‘yinlarni o‘ynar ekan,bu holatni ko‘rib katta bo‘layotgan yoshlarimizdan nimani ham umid qilishimiz mumkin. O‘sha qishloqning yosh bolalaridan kelajakda kim bo‘lasan deb so‘rasa,

Kareyaga yoki Rassiyaga ishlashga ketaman deb aytadi, o'qiyman bu kasbning egasi bo'laman deydi, afsuski juda kamchilikni tashkil qiladi. Maktab psixologi har bitta bola bilan ishlar, kelajagiga qiziqar, to'g'ri tavsiyalar berar xulqi og'ir, sinfdoshlariga qo'shilolmaydigan bola bilan alohida shug'ullanar uylariga borar ota-onasi bilan suxbatlar olib borar, o'quvchilar bilan turli treninglar, testlar o'tkazar ekan. Ota-onalar farzandlari bilan ishlar, kerak bo'ladigan hamma shart-sharoitlarni qilib bera boshlabdi, shu yil maktabni bitirgan yoshlardan 60 foiz o'quvchilar Unverstitga kiribdi Hammasi o'zi sevgan soha bo'yicha, qolganlari o'zi sevgan kasb hunar bo'yicha shogirtlikka tushibdi. Bu qishloqda o'zgarish shuncha katta bo'lib ketibdiki, maktabiga psixolog kelib bolalar bilan o'z kasbiga vijdonan, sitqi dildan ishlab ko'p natijalarga erishdi, hozirgi hayotimizda psixologlarning o'rnini juda katta ahamiyat kasb etayapti. Tariximizga qaraydigan bo'lsak! Amir Temur ilm-fan, san'at va madaniyatga chin ma'noda homiylik qilganligi tufayli Samarqandda me'morchilik, she'riyat, ilm-fan, monumental rang tasvir, manzarali rang tasvir, to'qimachilik san'ati, naqqoshlik kondokorlik, haykaltaroshlik, shishasozlik, kulolchilik g'oyatda rivojlandi O'z davrining mohir me'morlari Samarqandda osmono'par binolarni qurishib, Amir Temur davlatining shon-shuhrat va qudrati abadiyatga muhrladilar.

XXI asrda mavjud kasblarni bilish, oilani tebratish uchun ular qanchalik ishonchli ekani, o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish hech kimni befarq qoldirmasa kerak. Bolaga kasb tanlashga yordam berish kerak, lekin uning uchun tanlamaslik kerak. Bolaning diqqati va e'tiborini kasb tanlashning muhimligiga qaratish lozim. Ko'pchilik bolalikdan orzu qilgan kasbiga nafaqa yoshi arafasida ham erishganini kuzatganmiz. Orzularning uzoq vaqt ro'yobga chiqmasligi emas, balki amalga oshgani muhimdir. Kasbga yo'naltirish muammosini hal qilish nafaqat u yoki bu shaxsning, oilaviy muhitning, balki butun bir davlatning muhim strategik vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Kasb tanlash har bir inson hayotida muhim o'rin egallaydi. Bu ishga qanchalik erta, maqsadli va mas'uliyat bilan kirishilsa, shunchalik yaxshi natijalarni beradi. Kasbni to'g'ri tanlash uchun esa imkon qadar ko'proq mutaxassisliklar haqida chuqur tushunchaga ega bo'lish lozim. Chunki inson tanlagan kasbi bo'yicha to'liq va obyektiv ma'lumotga ega bo'lsa, xato qilish ehtimoli shunchalik kam bo'ladi. Kasblar tanlovi bizda juda katta. Tanlov katta bo'lgani uchun ham tanlash qiyin bo'ladi. Ko'pgina katta yoshli kishilardan, o'ylab kasb tanlash imkoniyati bo'lmaganligi uchun, bir umr o'zlari xohlamagan joyda ishlaganliklari haqida ko'p eshitamiz. Bugun esa ota-onalardan ko'ra yoshlarda kasb tanlash imkoniyatlari juda keng va katta. Shunday ekan, nega yoshlarimiz bu muhim masala haqida vaqtliroq, jiddiy o'ylash o'rniga, umumta'lim maktabini bitirishdan ikki-uch oy oldin shug'ullanadilar? Vaholanki bu ishni shoshilmasdan puxta o'ylab amalga oshirish kerak.



Odatda, odamlar u yoki bu kasb egalarining o'z ish o'rinlarida nima bilan shug'ullanayotganliklariga uncha qiziqmasada, qancha maosh olayotganlarini bilishni istaydilar. Bu hol kishilar o'rtasida tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Mustaqillik yillarida o'quvchilarning kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirilishini asoslab borishga qaratilgan ko'pgina psixologik-pedagogik tadqiqotlar olib borildi, qo'lga kiritilgan empirik ma'lumotlar qaytadan tahlil qilindi. Jumladan, kasbiy niyatlarning barqarorligini o'rganish yuzasidan N.P.Krilov o'tkazgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, o'z niyatlarini amalga oshirish maqsadida, oily o'quv yurtiga kirgan talabalar orasida ham ko'pchilik shaxslar o'zlarining kim bo'lishlarini oxirigacha hal qilolmaganlar. Bunga sabab-maktabni bitirgan o'spirinlarni mazkur oliy o'quv yurtiga olib kelgan kasb haqidagi tasavvurlar bilan bu kasbning haqiqiy amaliy mazmuni o'rtasidagi nomuvoviylikdir. Ularning ko'pchiligi mazkur oliy o'quv yurtiga tasodifan kirgan bo'ladilar: "otam vrach bo'lganligi sababli kirdim", "chunki bu yerga kirish osonroq bo'ldi" va hokazo. Shuni ta'kidlash o'rinliki, o'zining kasbiy taqdirini tasodifan hal etish murakkab kechinmalarga, tanlangan kasbi sohasi yuzasidan ikkilanishlariga, og'ir ichki nizolariga, ziddiyatlariga olib kelishi mumkin va bu voqelik sodir bo'ladi.

Shaxsning muvaffaqiyat strategiyasiga yo'naltirilganligi. Shaxsning bozor iqtisodiyoti sharoitida bardoshligi. Professiografiyada ekologik, huquqiy va iqtisodiy madaniyat masalalari ham nazarda tutiladi. Maxsus psixofiziologik talablar bloki - ishchining kasbiy faoliyati jixatdan psixofiziologik xususiyatlariga qo'yiladigan talablarni aks ettiradi. Bunga tibbiy ko'rsatmalar, jinsiga, yoshga bo'lgan va sanitariya-gigienik talablar kiradi.

### XULOSA

Har bir inson hayotida kasbiy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandlarining ilk qadamlaridanoq uning kelajagi to'g'risida o'ylab qolishadi. Farzandlarining qiziqish va qobiliyatlarini kuzatish orqali ularning kasbiy kelajagini aniqlashga harakat qiladilar. Ko'pgina maktab bitiruvchilari kelajakda kim bo'lsam ekan yoki qaysi sohaning mutaxassisi bo'lsam ekan? – degan savolni o'z oldilariga qo'yib, kasb tanlash muammosiga duch kelishadi. Natijada o'quvchilar tomonidan mutaxassisliklar tasodifan tanlanadi. Hech qanday maxsus tayyorgarlikka ega bo'lmasdan yoki kasbiy kelajagini tushunib etmasdan maktab bitiruvchilarining bir qismi darhol ishga joylashadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston", 2007.
2. Ulug'bek Sattorovich Jumayev "O'quvchilarda kasb tanlashga munosabat tizimi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari". Monografiya. T. "Navro'z" Nashriyoti, 2017 yil, 15-28 betlar.

3. Nasiba Mardonovna Mardonova, Nusrat.M, Sharipov N.M, Ro'ziyev F.J, "Kasblar olamiga sayohat"- T., 2016.5-16 ,betlar.
4. Зарипова, Г. К., & Рузиева, К. И. (2018). Использование интерактивных методов в процессе обучения студентов компьютерным технологиям. Проблемы педагогики, (7 (39)).
5. Ramazonov, J. J. (2021). The role of self-governance in providing personal perfection. Scientific progress, 2(2), 1075-1078.

